

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan

№ 50 (66331)
2001 yil 14 dekabr, juma

Sotuvda erkin narxda

FAXRIYLAR STIPENDIYASI

Qo'limga taklifnomani oldimu poytaxtimizdagi Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 121-o'rta maktabga yo'l oldim. Maktab Zahiriddin Muhammad Bobur mahallasida joylashgan bo'lib, o'zi ham Bobur nomida ekan. Mahalla fuqarolar yig'ini bilan maktabning o'zaro hamkorligi, hamjihatligi tashqaridan kelgan odamga yaqqol seziladi.

Bu kunga ikki tadbir mo'ljallangan bo'lib, biri Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan «Siz qonunni bilasizmi?» tanlovi hamda eng a'lochi va faol o'quvchilarga rag'batlantiruvchi stipendiyani topshirish ko'zdatutilgan edi. Tadbirda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi respublika Bolalar tashkiloti raisining o'rinbosari Gullola Isoqova, «Yangi avlod» studiyasining rahbari Sunnatilla Qo'ziyev, Toshkent shahar bolalar tashkilotining raisi Gulchehra Olimjonova, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati matbuot markazi kotibi Ma'ruf Toshpo'latov, mahalla fuqarolar yig'ini raisi Islom aka Isoqovlar ishtirok etdilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi yangraganda qo'li ko'ksida turgan o'quvchilar ko'zlaridagi ishonch, qat'iylik

nuri yanada o'tkirlashgandek edi go'yo. Maktab rahbari Dilbar opa Yodgorova kirish so'zi bilan tadbirni ochib berdi. Barcha hayajon bilan Bobur nomli stipendiyasohiblarini bilishgaoshiqardi. So'z Islom aka Isoqovga berildi:

-Men avvalo sizlarni Konstitutsiya kuni va yaqinlashib kelayotgan Ramazon hayiti bilan muborakbod etaman. Shunday shodiyonalar ko'payaversin yurtimizda. Biz mahallamiz hududida joylashgan maktab, bog'chalar bilan doimiy ravishda bog'lanib turamiz. Chunki, eng avvalo bolalarning sog'ligi, ta'limi, odob-axloqi yaxshi bo'lsa, mahalla obro'yi ham a'lo bo'ladi. Mahallamiz maktab va bog'chalarni ta'mirlash, ko'kalamzorlashtirish ishlarida bosh-qosh bo'ladi. Biz eng a'lochi, faol o'quvchilarga o'z stipendiyamizni ajratdik. Ruxsatingiz bilan stipendiya sohiblari ism-shariflarini o'qib eshittirsam.

Shahlo Obidova, 7- «Z» sinf

o'quvchisi, Svetlana Batskix, 10- «D» sinf o'quvchisi, Anastasiya Kostrikova, 4- «V» sinf o'quvchisi.

Shuni eslatib o'tishim joizki, stipendiatlarni tanlashda ularning yashash tarzi, oilaviy sharoitlarini ham nazarda tutganmiz. Biroq, bu bilan chegaralanmaymiz. Yanada ko'proq o'quvchilarni rag'batlantirish niyatimiz ham yo'q emas. Maktab va mahalla ishlarida faol qatnashadigan, tuman, shahar, respublika miqyosida dong'i ketgan farzandlarimiz yanada ko'paysin. Men hammangizga muvaffaqiyat tilayman.

So'ngra «Kuch adolatdadir» shiori ostida 10- «V» sinf o'quvchilarining «Adolat» guruhi bilan 10- «G» sinf o'quvchilarining «Qonun himoyasi uchun jonimiz qalqon!» shiori bilan «Qalqon» guruhi o'zaro bellashdilar. Ularga omad tilab, Gulchehra Olimjonova shunday dedi:

-Men bu maktabning

muvaffaqiyatlariga, quvonchli onlariga ko'p marotaba sherik bo'lganman. O'tgan yili shahar miqyosida bo'lib o'tgan «Siz qonunni bilasizmi?» ko'rik-tanlovida 121-o'rta maktab ikkinchi o'rin sohibi bo'lgan edi. Huquq bo'yicha o'z bilimini har tomonlama charxlayotgan maktabga endigi tanlovlarda faqat birinchi o'rin nasib etishiga tilakdoshman.

Tadbir yakunida O'zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonovaning «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!» qo'shig'ini kuylagan 5- «B» sinf o'quvchisi Farhod Jo'rayevda ohang, ovoz, iste'dod va qobiliyatning kuchliligi sezilib turardi. «Nihol» sovrindori Sevara Nazarxonning Muhammad Yusuf so'zi bilan «Vatanim» qo'shig'i xonishiga 7- «Z» sinf o'quvchisi Muqaddam Musayeva juda chiroyli xirom ayladi.

Tadbir so'ngida maktab bosh yetakchisi Manzura Nakibova kamolotchilar xonasi bilan yaqindan tanishtirdi. Anchamuncha ishlar amalga oshirilayotganini ko'rib, ko'nglimiz tog'dek ko'tarilib qaytdik.

Muharrama PIRMATOVA.



Nima uchun biz Konstitutsiyani «baxtimiz qomusi» deb atadik? O'zbek xalqi - o'ziga xon, o'ziga bek xalqdir. Har bir xalq uchun uning ozodligi, erkinligi eng

KONSTITUTSIYA - DAVLAT POYDEVORI

emasmu? Shunday ekan, qomusimiz katta baxt olishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Mustaqilligimiz tufayli bizning yoshlarimiz chet el davlatlarda o'z bilimlarini boyitib kelish huquqiga ega bo'ldilar. Konstitutsiyamizning 4-moddasida shunday deyilgan:

«O'zbekiston respublikasining davlat tili - o'zbek tilidir». Tilimiz taqdiri, uning kelajagi uchun kurashish esa biz yoshlarning vazifamizdir.

Respublikamizda fuqarolarning erkin so'zlab, erkin fikr bildirishi, o'z orzu-niyatlarini mustaqil

Bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. I.A.KARIMOV.

Dilrabo KOSHEVA,
Navoiy shahridagi
15-o'rta maktabning
6- «A» sinf o'quvchisi.

BU YORUG' OLAMDA VATAN BITTADIR

Poytaxtimizdagi Mirzo Ulug'bek tumani qo'shimcha ta'lim majmuasida Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan «Bu yorug' olamda Vatan bittadir» deb nomlangan tadbir o'tkazildi. Kechada Mirzo Ulug'bek tumanidagi barcha maktablardan o'quvchilar ishtirok etdilar. Maqsad esa bitta - o'sib kelayotgan barkamol avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash va kamol topirish.

Tadbirda qatnashgan O'zbekiston Milliy Universitetning tarix fanlari nomzodi Shohista O'ljayeva bolalarga vatandoshimiz, millatimiz faxri bo'lgan Jaloliddin Manguberdining Vatanga bo'lgan muhabbati, sadoqati, matonatini qiziqarli qilib gapirib berdi. Tadbir o'quvchilarning sho'xchan kuy-qo'shiqlari bilan yakunlandi.

Tadbirning chiroyli o'tishida qo'shimcha ta'lim majmuasidagi ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha bo'lim boshlig'i Shirmanoy opa Asranovanning xizmatlari katta bo'ldi.

Mohigul SUVONOVA.

HUQUQINGIZNI BILASIZMI?

Bu yil maktabimizda Konstitutsiya kuniga bag'ishlab o'tkazgan tadbirimiz o'zgacha - musobaqa asosida bo'ldi. O'quvchilarimizning konstitutsiyani qanday tushinishlari, moddalarini qay darajada bilishlarini sinab ko'rish maqsadida «Siz huquqingizni bilasizmi?» deb nomlangan musobaqa tashkil qildik. Unda boshqa maktablarning huquq faniga qiziquvchan o'quvchilari ham ishtirok etdilar. Qiziqarli savol-javoblar, sahna ko'rinishlari, kuy va qo'shiqlar tanlovi asosida o'tgan musobaqada maktabimiz o'quvchilaridan Dilafro'z Otaxo'jayeva, Shuhrat Tojiyevlar bilimdonu zukkolikda barchani lol qoldirib, 1-o'rin sohibi bo'lishdi.

Bayram munosabati bilan o'tkazilgan ochiq tarbiyaviy soatlarda o'quvchilarning erkinliklari, huquq va burchlari haqida ko'p narsalarni bilib oldik.

Feruza OBIDOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l
tumanidagi 2 - o'rta maktabning
9 - sinf o'quvchisi.

ZAMONAVIY YOSHLAR

Bugungi kun yoshlari qanday bo'lishi kerak, degan savolga har kim turlicha javob beradi. Radio, televizorlar orqali iste'dodli opa-akalarimiz haqida lavhalar ko'ramiz va tanishamiz. Ularning tinimsiz mehnat orqali o'z orzulariga yetishganligiga amin bo'lamiz. Hozirgi yoshlarda darhaqiqat g'ayrat- shijoat kuchli va ular o'z niyatlariga yetishish uchun astoydil intiladilar. Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaydi, degandek yoshlarimiz orasida dangasalari ham yo'q emas. Ularning qalbida mehr, intilish uyg'otish uchun albatta ota-ona, o'qituvchilar mas'uldir. Ularning oltindan qimmat vaqti zoye ketmasligi uchun astoydil ishlash kerak.

«Tong yulduzi» gazetasida maqolalari chiqayotgan tengdoshlarim ham ulkan orzulari borligi va ular diyorum shuhratini dunyoga yoyishga intilayotganliklari yozgan maqolalarida yorqin namoyon bo'layapti. Shuning uchun men tengdoshlarimga orzulari ushalishini va maqolalar yozaverishlarini, iste'dodlar yanada ko'payishini tilab qolaman. Zero, biz yoshlar orqali diyorumiz rivoj topgan mamlakatlar orasiga qo'yilajakdir.

Madina ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati,
Oqtosh shahridagi
59-maktabning o'quvchisi.

DO'STLIGIMIZ ABADIY BO'LSIN

Do'st, o'rtoq bo'lish qanday yaxshi. Biz o'quvchilar hozirdanoq do'stlikning qadriga yetib borishimiz lozim. Bilimli, odobli bolalar bilan do'st tutinishimiz kerak. Imkon bo'lsa qo'shni davlat bolalari bilan ham do'stlashaylik.

O'zbekiston tobora rivojlanib bormoqda. Qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilyapti, do'st tutinyapti. Yoshlar esa qo'shni davlatlar yoshlari bilan tajriba almashib, o'z bilimini oshirib boryapti. Shunday ekan, biz o'quvchilar ham davlatimiz ishonchini oqlab boraylik. Do'stligimiz abadiy bo'lsin.

Maqsud ABDIYEV,
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 213- maktabning
6- «A» sinf o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



QOMUSIMIZ - BAXTIMIZ POYDEVORI

Konstitutsiya nima? Konstitutsiya davlatimiz, yurtimiz oldidagi, burchlarimiz, haq-huquqimizni, fuqarolarning huquqini belgilovchi manbadir. Konstitutsiya erkinlikni, ya'ni, chet elga chiqib bilim olishni, o'zga davlatlar bilan birgalikda diplomatik aloqada bo'lishni, tijorat va iqtisodiy tomondan ham erkinlikni beradi.

Endi yana o'ylab ko'raylik, Konstitutsiya bizga tariximizni qaytadan o'rganishimiz uchun imkon yaratib berdi. Biz necha yillardan beri nohaq qoralanib kelgan ota-bobolarimiz haqida o'qib-o'rganyapmiz. Bobolarimizdan bizga meros bo'lgan, lekin shu paytgacha chang bosib yotgan kitoblar, qo'lyozmalarni o'qib, fikr-mulohaza qilishga endi biz haqlimiz. Endi bu asarlarni ehtirom ila muzeylarimiz peshtoqiga, uyimiz to'riga avaylab qo'yyapmiz. Men tariximizni o'rganib, shunday fikrga keldim-ki, bir paytlar o'zbek xalqini omi, savodsiz deganlari bo'hton ekan. Aslida uni omi, savodsiz qilishga harakat qilishgan ekan. «Qing'ir ishning qiyig'i - qirq yildan keyin ham ko'rinar» deganlaridek, unday insonlarning qilgan qora qilmishlari mana shuncha yil o'tibdi, unutilmadi. Kim haqu kim nohaq ekanligini esa biz yoshlar bugun tushunib yetmoqdamiz. 1987 yil AQSH davlati o'z Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu Konstitutsiya mana hozirgi kungacha o'z kuchini yo'qotmadi. Sovet davlati davrida Konstitutsiya necha bor qabul qilinib, necha bor o'zgartirildi. Nega? Ular uchun Konstitutsiya «shunchaki hujjatmidi?» Axir Konstitutsiya fuqarolar uchun, davlat uchun kerakli-ku. Har bir davlatning o'z qonun-qoidasi bo'ladi-ku. O'sha paytlarda Konstitutsiyaning ko'p martalab o'zgartirilishiga sabab undagi ayrim qonunlarda mantiq bo'lmaganligi va yana O'zbekiston Konstitutsiyasi albatta Rossiya Konstitutsiyasiga to'g'ri kelishi kerak edi. Va nihoyat Mustaqillikka erishdik va 1992 yil 8 dekabr kuni yangi Konstitutsiyamiz qabul qilindi. Endi bizning tilimiz va ongimiz mustaqil, endi bizning kelajagimiz mustaqil. Kelajagimizni barkamol va porloq qilish yo'lida hech qachon tolmaymiz va toymaymiz.

Zilola RUSTAMOVA,
Toshkent shahar Sobir Rahimov tumanidagi
224-maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi.

MEHR-SHAFQATLI BO'LAYLIK

Assalomu alaykum «Tong yulduzi» ijodkorlari. Ilk maqolamni yozishdan maqsadim - biz maktabimizda «Mehr-shafqat» yo'nalishi bo'yicha ish olib boramiz. 3 dekabrda nogironlar kuni munosabati bilan tadbir o'tkazildi. Bizning maktabimizda ham 3 nafar uyida o'qitilayotgan nogiron o'quvchilar bor. Biz guruh a'zolari shu o'quvchilar bilan aloqada bo'lib turamiz. Ularning o'ksik ko'ngillarini biroz bo'lsa ham ko'tarishga harakat qilamiz. O'zlari ham, ota-onalari ham bizdan juda minnatdor bo'ladi.

Hurmatli «Tong yulduzi!» Men sen orqali barcha nogiron bolalarni, xususan, maktabdoshlarim Nasiba Abdullayeva, Nodirbek Ro'zimov va Iqboloy Umarovalarni bayramlari bilan tabriklab, ularning sog'ayib safimizga qo'shilishini tilayman.



Surayo QUTLIMURODOVA,
Xorazm viloyati,
Shovot tumanidagi
41-son maktabning
8- «B» sinf o'quvchisi.

SIZGA TASHAKKUR

Oy quyoshdan nur olib borliqni yoritgani kabi shogird ustozdan ziyo olib hayot chirog'ini yoqadi. O'qituvchi - hayot charog'onidir, u kelajak avlodga ilm o'rgatadi, ta'lim-tarbiya beradi, zamonamizning har tomonlama yetuk, barkamol kishilari qilib yetishtiradi. O'qituvchi yozishni, chizishni, o'qishni bilmaydigan yosh murg'akni ilmi, savodli qiladi, ularni tarbiyalab, axloq-odobga va kasb-hunarga o'rgatadi. Shunday aziz insonlardan biri - ustoz Obida opa Nazarovadir. U kishi 9- «A» sinfda rahbarlik qilib, shu bilan birga ona tili va adabiyot fanlaridan ta'lim berib kelmoqdalar. Ustoz rahbarlik qilayotgan sinfga kirsangiz bahru-dilingiz ochiladi. Sinfdagi tabiiy va sun'iy gullarning ko'rki, derazalarga ilib qo'yilgan pardalarning chiroyiligi kishiga zavq bag'ishlaydi. Bularning hammasi ustozimizning qilgan mehnatlari samarasidir. Bu sinf hozirgi kunda maktabimizning eng namunali sinflaridan hisoblanib, unda 37 nafar o'quvchi o'qiydi. Men ham shu sinfda ta'lim-tarbiya olaman. 37 o'quvchi xuddi bir oila farzandiga o'xshaymiz. Ahillik, bir-biriga hurmat va shu bilan birga mustahkam bilim olishga intilish sinfimiz o'quvchilarining go'zal fazilatlaridan biridir.

Ustozimga qarab: «Aziz ustoz, 21 yillik mehnatingiz zoye ketmaydi, biz sizning izdoshingiz, shogirdingiz va safdoshingiz bo'lamiz» degim keladi.

Nafisa NE'MATOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon
tumanidagi 25-maktabning
9- «A» sinf o'quvchisi.

MEHR - BIR SIQIM QAND

Dunyoda birovga yaxshi so'z aytib, uning ko'nglini ko'tarish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Mehribon odamlar esa har yerda aziz. Zero, shoir aytganidek:

*Xastahol kishiga yaxshi so'z aytmog,
Bir siqim qanddan ham bilgil, yaxshiroq!*

Biz ko'ngli kemtik bolalamiz. Qaynoq mehmi, shirin so'zni boshqalardan ko'ra ko'proq qadrlaymiz. Mehribon kishilar yonida o'zimizni baxtiyor his qilamiz. Ustozimiz Ditora Rahmatova xuddi ana shunday mehribon insonlardan biri. Bizni ko'rsalar xuddi yosh boladek sevinib ketadilar. Yaxshi ishlarimizni oshirib, yomonimizni yashirib gapiradilar.

Opamizning «Barvaqt uyg'onish - eng yaxshi odat» degan gaplarini o'zimizga shior qilib olganmiz. Ularning aytishlaricha barvaq turgan odamning ishi unarmish. Biz ustozimizdan kitobga mehr qo'yishni o'rgandik. Biror yangi kitob chiqsa, Ditora opaga ko'rsatishga oshiqamiz. Birgalikda o'qib, o'zaro fikrlashamiz.

Ustozimizga tabassum juda yarashadi. Ular kulsalar, go'yo olam nurafshon bo'lib ketgandek tuyuladi. Shuning uchun ham doimo a'lo o'qib, tartib-intizomli bo'lib, Ditora opamizni shod qilishga intilamiz. O'zimizdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun ustozimizdan minnatdormiz.

**Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi
2-son internat
maktabining
7- «B» sinf o'quvchilari.**



Istiqlol sharofati bilan respublikamizda juda ko'plab bilim dargohlari, gimnaziyalar, litsey va kollejlarda tashkil qilinib, mustaqil yurt farzandlarining puxta bilim olishlari, kelajakda komil insonlar bo'lib voyaga yetishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

1995-96 o'quv yilidan o'z faoliyatini boshlagan, 1997 yildan esa YUNESKO ning ASP dasturi asosida ish olib borayotgan Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyamiz ana shunday ilm maskanlaridan biri sanaladi. Gimnaziyamizda tahsil olayotgan 1250 nafar o'quvchiga 6 nafar fan doktori, 10 nafar fan nomzodi hamda tajribali o'qituvchilar bilim berib kelishyapti. Ular o'z ustilarida tinimsiz ishlaydilar, shogirdlarini dunyoviy bilimlar bilimdonlari qilib tarbiyalash borasida tinmay izlanadilar. Parijdagi YUNESKOning «Ta'limni rejalashtirish xalqaro instituti qoshidagi malaka oshirish kurs»larida tajriba ortirib kelganliklari ham bejiz emas. Shu bois ham o'quvchilarimiz iqtidorli, intiluvchan o'g'il-qizlar bo'lib kamol topishyapti.

O'qituvchilarimiz bilim berish, o'quvchilarimiz ilm olish bilangina kifoyalani qolmay, shahar, respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan anjumanlarda ham faol ishtirok etadilar.

1997 yilda ikki o'quvchi

va bir nafar o'qituvchimiz Xitoyda bo'lib o'tgan «Tarixiy obidalarini asrash»ga bag'ishlangan Osiyo va Tinch okeani regional yoshlar forumida, bu yil esa Tailandda bo'lib o'tgan ijtimoiy fanlarni o'qitishga bag'ishlangan ishchi seminarida ishtirok etib, bir olam taassurotlar bilan qaytishdi.

2000 yilda gimnaziyamiz qoshidagi raqs dastasi ishtirokchilari Germaniyada bo'lib o'tgan «Fikrlar adessiyasi» festivalida qatnashib, betakror o'zbek raqslarini chet ellik tengdoshlariga namoyish etishdi.

Bundan tashqari, faol o'quvchilarimiz qator rivojlangan davlatlardagi maktablarning o'quv dasturlarida ishtirok etish uchun safarlar uyushtiradilar. AQSHning Florida, Konnektikut shtatlari maktablari, Germaniyaning Bonn shahridagi Betxoven gimnaziyasi, Buyuk Britaniyaning qator maktablari o'quv dasturlaridagi ishtiroklari fikrimizning dalili bo'la oladi. Ayni kunlarda bir guruh o'quvchilarimiz Hindistonda bo'ladigan «Xalqaro Bolalar Assambleyasi»da qatnashish uchun hozirlik ko'rayotgan bo'lsalar, yana bir guruh o'g'il-qizlarimiz Buyuk Britaniya safariga

otlanayptilar. Ikki nafar o'qituvchimiz AKSELS tashkilotining eng yaxshi ingliz tili o'qituvchilari ko'rik-tanlovlarida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsalar, o'quvchilarimiz ham bo'sh kelmaydilar. 1998 yilda gimnaziyamizning 6 - sinf o'quvchisi O. Azimova rus tili fani bo'yicha Moskvada bo'lib o'tgan Xalqaro olimpiadada 36 davlatdan

kelgan tengdoshlari orasida g'olib chiqib, oltin medal sovrindori bo'lganda, bu yil ham xuddi shunday olimpiadada ishtirok etgan 3 nafar o'quvchimiz 2 ta oltin va 1 ta bronza medalni qo'lga kiritib qaytishganda suyuganimizni ko'rsangiz edi. Zero, shogirdlarning har bir yutug'i ustozlarniki hamdir.

Bilim dargohimiz qoshidagi o'ndan ziyod turli to'garaklar faoliyati ham maqtasa maqtagudek. Sport to'garaklarida o'z mahoratlarini oshira borayotgan yosh sportchilarimiz 8-10 yoshli bolalar o'rtasida TAEKVANDOning til turi bo'yicha



o'tkazilgan O'zbekiston birinchiligida 1 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medali sohibi bo'lishdi.

Gimnaziyamizning 2000 yildan buyon «Xalqaro rus tili o'qituvchilari assosiyasi»ga a'zo bo'lib kelayotganligidan ko'ngillarimiz osmon qadar. Bitiruvchilarimizning 90 foizdan ortig'i oliy o'quv yurtlariga kirish baxtiga muyassar bo'layotganliklari - ustozlarimizning tinimsiz izlanishlari samarasi ekanligini yaxshi bilamiz. Zero, astoydil qilingan mehnat zoye ketmaydi.

Abdusalom UMAROV,
Ijtimoiy yo'nalishdagi
Respublika maxsus
gimnaziyasi direktori.

GIMNAZIYAM - FAXRIM - MENING

Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasi hayotidan lavhalar

Yurtimizda ta'lim tizimiga juda katta e'tibor berilayotgani, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun

hammamizga ayon.

Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarga

chizish tanlovi, atrof-muhitni himoya qilish kuniga bag'ishlangan tadbir, til bayrami, gazetalarda tanlovi, ilmiy konferensiyalar, madaniy merosimiz va qadriyatlarimizni ardoqlash maqsadidagi davra suhbatlari shular jumlasidandir.

Mirzo Ulug'bek tumani «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda ish olib borayotgan gimnaziyamiz «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkiloti prezidenti Nurmuhhammad Berkenov o'rinbosari Behzod Ergashev, Umid Anvarxo'jayev va boshqalarning sa'y-harakatlari tufayli yoshlarimizning darslardan bo'sh vaqtlari maroqli o'tyapti.

«Yosh ijodkor» o'quvchilar klubida «Istiqlol g'unchalari» she'riyat to'garagi tashkil etilib, she'riyatga ixlosmand o'g'il-qizlar orasida mushoiralar o'tkazib turiladi. 11-«A» sinf o'quvchisi Nargiza Maraimova, 9-sinf o'quvchilari Nargiza Najimova, Hilola Po'latova, Dildora Mahmudova, Shirin Akromova, 8-sinf o'quvchilari Aziza Xalilova, Sevara Umarova, Nargiza Yo'ldosheva kabi o'quvchilar ijodida ona Vatanga mehr-muhabbat, yurtga sadoqat, onalarga hurmat kabi fazilatlar ulug'lanadi. Ustozlarimizning «Hayot - ustoz, xalq - muallim» mavzuidagi davra suhbatlaridan o'quvchilar o'zlariga tegishli xulosalar chiqarib, foydali maslahatlar oladilar. «Nafosat» qizlar klubida esa qizlarimiz pazandachilik, tikish-bichish kabi hunarlarni o'rganish bilan birga, qiz bolalar gigiyenasini, oiladagi tejamkorlik sirlarini o'rganadilar.

«Ma'naviyat va ma'rifat» ishlari bo'yicha direktor muovini Gulnora Umarova, ma'naviyat fani o'qituvchisi Marg'uba Ikromova, yoshlar yetakchisi Surayyo Qodirovalar boshchiligida «Odob-ahloq», «Sir saqlamoq odobi», «Kelajak yoshlar qo'lida», «Tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylaylik», «O'zbekona urf-odatlarimiz» mavzularidagi kechalarning o'tkazilishi yoshlarimiz qalbida milliy qadriyatlarining yanada ulug'lanishiga omil bo'lmoqda.

Eh-he, gimnaziyamizda faoliyat

ko'rsatayotgan 16 turdagi to'garaklarda amalga oshirilayotgan ishlarni, tadbirlarni sanayveradigan bo'lsak, vaqtimiz ham yetmaydi. Yaxshisi, bilim dargohimizga mehmon bo'lib keling, o'quvchilarimiz bilan



hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida qilinayotgan ishlar ko'lami kengligi

puxta, chuqur bilim berish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ko'p jihatdan biz - ustoz murabbiylarning

ijodkorligimizga bog'liq. Bu borada zimmamizda juda katta mas'uliyatni yaxshi his qilgan holda o'quvchilarimiz bilan tinimsiz ishlaymiz, ularning qiziqishlariga befarq qaramaymiz.

Yaxshisi, o'zim mehnat qilayotgan Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziya jamoasining ish faoliyati haqida gapirib bera qolay.

Gimnaziyamizda biron - bir tadbir, kecha va anjumanlar o'tkazilmaydigan kunlar yo'q hisobi. Futbol bo'yicha 8-11-sinf o'quvchilari orasida o'tkazilgan gimnaziya birinchiligi, 3-4-sinflararo o'tkazilgan «Jahonga tinchlik» deb nomlangan asfaltga rasm



SIZ VATANGA O'XSHAYSIZ, ONA

Siz Vatanga o'xshaysiz, ona, Vatan yanglig' yagonadirsiz. Shamchiroqsiz umrim yoritgan, Atrofimda parvonadirsiz. Siz Vatanga o'xshaysiz ona, Ko'nglingizning kengligi osmon. Yo'q, aslida siz Vatangamas, Vatan sizga o'xshar Onajon. Mehringizdan yaralgan jonim, Izlaringiz o'padi osmon. Bu dunyoda borligim haqqi - Ko'zlarimda yashang onajon. Oldingizda qarzimdir bisyor, Qolmasin hech ko'ngilda armon. Bag'ringizga bosh qo'yib, tuydim, Vatanimsiz aziz Onajon.

Nargiza MARAIMOVA,
11 - «A» sinf o'quvchisi.

hamsuhbat bo'ling. Gaplarimizning to'g'riligiga o'zingiz amin bo'lasiz.

Halima JUMANIYOZOVA,
Oliy toifali til-adabiyot fani o'qituvchisi, Respublika «Ijodkor o'qituvchi» ko'rik-tanlovi g'olibi.

VATAN

Vatan, tuprog'ingni ko'zimga surtdim,
Har bir giyohingda qalqidi ko'nglim.
Mening jannat yurtim, muazzam yurtim,
Taftingdan quyoshdek balqidi ko'nglim.
Sen buyuk daryosan, qirg'oqlaringda,
O'tmish daholarning shonlari oqar.
Har bitta yaprog'ing, bitta daftardir,
Undan kelajakning ko'zlari boqar.
Qadim moziylarda yongan chirog'im,
Mahzun kechmishlarning yodisan Vatan.
Sahrolarda joni qolgan Shirog'im,
Bag'ridan uzilgan dodisan Vatan.
Vatan, tuprog'ingni ko'zimga surtdim,
Har bitta giyohing jonimga tutash.
Bevaqt qurib qolma, ishongan bog'im,
Sensan dilimdagi eng buyuk otash!

Halima JUMANIYOZOVA.



Malika AZIMOVA,
Toshkentdagi III-maktabning 9- «B»
sinf o'quvchisi.

TENGDOSHLARING IJODI

Opa-singil Malika va Ma'mura
Azimovalarning ijod namunalari «Gulxan» jurnali,
«Ma'rifat» va «Tong yulduzi» gazetalari sahifalarida ko'p
marotaba e'lon qilingan. Undan tashqari ular radio va oynayi jahon
qoshidagi bolalar va o'smirlar studiyalarining faollari. «Yangi avlod»,
«Umid uchqunlari», «Dunyo va bolalar», «Yoshlar ovozi» ko'rsatuvlarida o'z
she'rlari bilan ishtirok etgan opa-singil Sobir Rahimov tumani, Abdulla Nabiye
nomidagi qo'shimcha ta'lim kompleksi «Hulkar» yosh ijodkorlar to'garagi a'zolari.
Ma'mura VII - «Iqtidorli bolalar anjumani»da uchinchi o'rinni, Bolalar kunida
bo'lib o'tgan «Yosh qalamkashlar» tanlovida birinchi o'rinni olgan. Malika
esa adabiyotdan tashqari yana do'ppi tikishga qiziqadi. Do'ppido'zlarning
shahar miqyosida o'tkazilgan tanlovida birinchi o'rin sohibi
bo'lgan. She'riyat bilan oshno tutingan qizaloqlar
tuyg'ulari oq qog'ozlarga o'zgacha jilo beradi.

BOZORDAGI OZORLAR

Katta opam bilan bozordan etik sotib
olib keldik. Suyunib, kiyib ko'rmoqchi
bo'ldim, ammo oyog'im yarmidan u
yog'iga o'tmadi.

- Sig'mayapti, kichigini olib
qo'yibmiz-ku!

Shunda oyim «Kiyib ko'rib olsanglar
bo'lmaydimi», dedilar.

Ular bilmaydilar-da, bozorda
nimalar bo'lganini, bozor tiqilinch.
Endi kiyib ko'ray desam odamlar
turtib ketadi. Endi kiyib ko'ray desam,
arava kelib qoladi. Uning ustiga sotuvchi
shoshiltirganini aytmaymizmi:

- Tezroq pulini ber!

- Hali kiyib ko'rganim yo'q.

- Shartmas! Nechanchi razmer
kiyasan o'zi!

- O'ttiz oltinchi.

- Xuddi sening razmering, olaver,
to'g'ri keladi, - deb qo'limdagi pulni
yulqib oldi-da, etikni tutqazdi.

Keyin tezroq jo'na degandek menga
o'qrayib qaradi. Ko'nglimiz xijil
bo'lib, uyga qaytgandik...

- Tezda orqangizga qaytib almashtirib
kelinglar, - dedilar oyim.

Eh oyijon, u yerni bozormas,
ozorligini bilmaysizmi?!

RAHMAT SIZGA

XAZONLAR

Barglar ham gapiradi. Ular
daraxtdan tushishga
qo'rqishadi. «Bizni yerga
uloqtirma», deb shamolga
yolvorishadi. Lekin sarg'aygan barglarning
anchasi uzilib ketdi. Yerga eson-omon tushib
olganidan xursand bo'lishdi. Ular o'smalarning
ustiga ko'rpadek yopildi. O'smalar: «endi sovuq
qotmaymiz», deb rosa sevinishdi.

Hademay qish keladi. Atrofda maysalar
ko'rinmaydi. Faqat mehribon
xazonlar ostida mening o'smalarim
barq urib turibdi. Ularni menga
qishda ham asrab berganingiz
uchun rahmat sizga xazonlar!

MUSIQQA SEHRI

She'r yozay deb xayol surib o'tirgan edim. Shu vaqt musiqa yangrab
qoldi, bir yoqda esa karnay-surnay ovozi qulog'imga chalindi. Zavqlanib
ketdim. Ko'nglim yayrab ketdi. Bundoq qaragam oyog'im musiqa ohangida
tebranayapti. Xonaning devori ham jaranglab ketgandek bo'ldi. Beixtiyor
hovli tomon yurdim. Gulzordagi rayhonlar shox tashlab o'ynayotganga
o'xshaydi. Jiyda barglari shildir-shildir qilib qo'shiq ayta boshladi. Shunda
qo'limdagi qalam ham qog'oz betida yurib ketdi.

JIYDA SHOXCHASI

Jiyda shoxchasini qo'linga oldim. Hidlab ko'rdim. Hech qaysi daraxt
gulining hidi bunday xushbo'y emas edi. Uning barglari go'yo tilla
qo'ng'iroqdek, gullarning hidi esa atrofga atir sochib turibdi. Ular
marvarid kabi tizilgan. Uning gullari sariq qo'ng'iroqqa o'xshaydi.

Ha, bu qo'ng'iroqlar go'zallikni sevisha chorlaydi.

TEZ AYTISH

Yo'lchi yo'lbarsni yiqitdimi,
Yo'lbars Yo'lchini yiqitdimi?


Sohiba Sabohatga soat sovg'a qildimi,
Sabohat Sohibaga soat sovg'a qildimi?

Latofat Lolaga latifa aytdimi,
Lola Latofatga latifa aytdimi?

Saodat Sanobarni suratini soldimi,
Sanobar Saodatni suratini soldimi?

QOR QUSHLAR

Turnalar uchib ketdi,
Qor qushlarga gal keldi.
Osmondan tushar qat-qat,
Go'yo yirtilgan qor xat.




Misoli quyun yelar,
Yo oppoq tulpor kelar.
Bular mehmondir qishga,
Hammasi o'xshar tushga.



TOPISHMOQLAR

Odam emas oyog'i bor,
O'n ikkita tayog'i bor.
Kecha -kunduz yurar tinmay,
Buraydigan qulog'i bor.



Qirq kokilli oriq qiz,
So'ri tokka chirmashar.
Bo'ynidagi marjon iz,
Unga juda yarashar.

BINAFSHA ISI

Mayin shabboda yelib,
Bog'dan gul isi kelib
Dimog'imga urildi,
Charchoqlarim surildi.
Juda ham zavqim oshib,
Quvonchim qalbdan toshib
Qo'linga qalam oldim
Va darhol she'rga soldim.
So'ng bir oz o'yga tolib
Qaragam chopib borib
Binafsha ochilibdi
Hidlari sochilibdi.
U darakchi bahordan
Isi kelar nahordan.



YONG'OQQ

Men yong'oqman mag'zi to'q,
Ichimda hech puchi yo'q.
Ham yog'li, ham mazali,
Donishmanddek azaliy.


Ozuqaman odamga,
Qarindoshman bodomga.
Men miyaga o'xsharman.
Aqlingga aql qo'sharman.



UYG'ONISH

Navbahorda uyg'ondi,
Gul va lolalar.
O'rmonzorda uyg'ondi,
Ayiqlar bolalar.

Harorat jon berdi
Dala-yu dashtga.
Ko'nglida uyg'ondi
Orzular gashti.



SHAMOLDAN SO'NG

Kecha rosa shamol bo'lib,
Mevalarni duv to'kdi.
Atirgul qoldi to'zib,
Daraxt shoxlarin bukdi.

O'rik yotar tuproqda,
Loyga bulg'angan olma.
Kuz shamoli o'yinqaroq,
Shamoldek qarq'ish olma.



Ma'mura AZIMOVA,
Toshkent shahridagi O'ZMU
tayyorlov kursi tinglovchisi.

Qish kelib, biz zoriqib kutgan qor yog'a
boshladi. Xuddi oppoq kapalakdek o'ynab
osmondan tushayotgan qorning go'zalligidan
zavqlanib, maktabdan qaytgandan so'ng
ko'chadagi maydonchada o'ynardik. Ba'zilar
qordan to'plar yasab qorbo'ron
o'ynasa, boshqalar

pehona va yuzlarini artib, so'radim.

«Ana u bola qor bilan urdi». Qordan pehona
yorilganini eshitgan bolalar
hayratdan jim bo'lib

QYINDAN CHIQQAN O'Q
qorbobo yasardi.

Mazza qilib o'ynayotgandik,
bexosdan bir qiz yig'lab yubordi. O'girilib
qaragam, Maftunaning pehonasini qon.
Cho'ntagimdan darrov ro'molcha olib, uning

qolishdi. Keyin unga
otilgan qor to'pini qarashsa, ichida
tosh bor ekan. Bir bola qilayotgan ishining
oxirini o'ylamay qo'pol hazil qilibdi. Men
Maftunaning ahvoliga achinib ketdim. Uni qor
bilan urgan boladan juda xafa bo'ldim.

Rost-da, o'yin-o'yindek bo'lsin, birovg'a
ozor yetmasin.



Poytaxtimizdagi Mirzo Ulug'bek tumanidagi 375- maxsus bolalar bog'chasi 1992 yili tashkil qilingan. Unda ruhiy rivojlanishi sust, nutqida kamchiligi bor bo'lgan yuz nafar bolalar tarbiyalanadilar. Bog'chada maxsus dastur asosida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi. Maqsad - ularni sog'lom bolalar safiga qo'shish.

Nuqsoni bo'lgan bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularga mehr-shafqat ko'rsatish, xayru-sahovat qilish ishlari davlatimizning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bunday bolalarning hayotga moslashishi biroz murakkab bo'ladi. Shuning uchun ham ularga tajribali pedagoglar jalb qilinadi. Ushbu bog'chadagi pedagoglarning aksariyati ko'p yillik ish tajribasiga ega ijodkor va izlanuvchan, eng asosiysi bolajon insonlardir.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun

moslashtirilgan bog'chamizda ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish chora tadbirlari bilan bir qatorda ruhiy, tibbiy davolash ishlari

Ushbu mashg'ulotlar bolalarga katta yordam beradi.

Ayni kunlarda bog'chada «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur»ning birinchi bosqichi yakunlanib, ikkinchi 2001-2005 bosqichiga bir qator tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, fikrlashga o'rgatuvchi rangli ko'rgazmalar, M. Montessori uslubiyotiga mansub o'yinchoqlar va boshqa moslamalar ustida ish olib borilmoqda.

Bog'cha jamoasining oliy maqsadi - jamiyatimizga aqlan sog'lom,



Maqsadimiz: AQLAN SOG'LOM, RUHAN TETIK QILIB TARBİYALASH

muntazam olib boriladi, - deydi 375- maxsus ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bog'chasi mudirasi Dilorom Egamnazarova.



Jumladan, «Tevarak atrofdagi muhit-da erkin harakat qilishga o'rgatish», «Davolovchi badan tarbiya», k a b i mashg'ulotlardan keng foydalaniladi.

ruhan tetik avlodni yetkazishdir. Bu yo'lda biz qo'limizdan kelgan barcha ishlarni bajarishga tayyormiz.

Alisher
ABDULLAJONOV.

Suratda: bolalar bog'chasida o'tkazilgan tadbirlardan lavhalar.

Ustoz haqida so'so'z

Men o'qituvchilarni bog'bonlarga o'xshatgim keladi. Bog'bon nihollarni yaxshi parvarish qilsa, daraxt bo'lganda to'g'ri o'sib, mo'l hosil beradi.

direktorimizgacha ma'naviyat chashmalaridan bahramand bo'lgan bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchiga «nimadir» bera olamiz. Bundan

MA'NAVİYAT SARCHASHMALARI

Yaxshi parvarish qilmasa-chi, tarvaqaylab ketgan shoxlarini kesib tashlashga majbur bo'lamiz.

O'qituvchilar ham o'quvchilarga qanchalik mukammal bilim bersalar, kelajakda komil insonlar bo'lib shakllanadilar.

O'g'iltosh Xalilova o'quvchilariga mukammal bilim berib kelayotgan fidoiy ustozlarimizdan biri. U Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi 13-o'rta maktabda matematika o'qituvchisi, shuningdek, direktor muovini bo'lib ishlaydilar. Zahmatkash, mehnatsevar muallima opamizdan «ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirishda maktabning roli qanday?» - deb so'raganimda, opa o'zining 21 yillik ish faoliyatidan kelib chiqib shunday javob berdi: «Maktablarimizda ma'naviyat xonalari tashkil qilinayotgani juda yaxshi bo'ldi. Biz yoshlarga ma'naviy bilimlar asosini berar ekanmiz, avvalo o'zimiz bilimdon bo'lishimiz kerak. Qolaversa, maktabdagi farroshimizdan tortib, o'qituvchilaru

tashqari, yoshlarni tarbiyalashda sinf rahbarlarining o'rni juda beqiyos. Men sinf rahbari bo'lgan damlarimdabo'ldim ota-onalar bilan amaliy aloqa o'rnatishga harakat qilardim va bu samarali nafijalar berardi. Ya'ni har kuni kechki payt o'zimning guruhimdagi o'quvchilarning bir-ikkitasining uyiga kirib, ularni nima bilan mashg'ul bo'layotganligini surishtirardim. Shunda ota-onalari, farzandlarimiz juda chaqqon bo'lib qolishdi. Birinchi galda darslarini tayyorlab, keyin bizga ham yordam berayapti, deyishardi. Xohlardimki, har bir sinf rahbari oilalar bilan amaliy aloqa o'rnatilsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi».

O'g'iltosh opaning so'zlarini tinglab, ko'nglimiz taskin topdi. Chunki mana shunday zahmatkash muallimlarimiz bor ekan, demak ertangi kunimizga ishonak bo'ladi. Chunki yoshlarimiz tarbiyasi ishonchli qo'llarda.

Akbarxon
XUDOYBERDIYEV,
O'zMU jurnalistika



Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Navbahor jamoa xo'jaligidagi yangi Chimboy qishlog'i tashkil etilganiga olti yil bo'ldi. Bu qishloqda yashovchi bolalar a n c h a u z o q d a M A K T A B I N I G Y A X S H I Y A X S H I u c h u n joylashgan maktabga qatnaydilar. Ular yuradigan yo'l esa daraxtzor, chakalakzorlar bilan qoplangan. Vahimali bu yo'llardan yurishga hatto kattalar ham cho'chishadi. Ayniqsa qish kunlarida birorta odamni uchratmaysiz. Buni bilgan ayrim ota-onalar o'z farzandlarini maktabga yubormay qo'yishyapti.

- Bizdan uzoq bo'lmagan bir eskiroq bino bor, - deydi ota-onalardan biri.

- Agarda tuman hokimligi shu binoni ta'mirlab, maktab u c h u n ajratsa, bizga qo'shilib bolalarimiz ham xursand bo'lishardi.

Maktabga ketgan bolasidan xavotir olib, ko'ngli to'lmay turgan ayrim ota-onalar o'z farzandini maktabga yubormasligi aniq. Uzoqdagi quyruqdan, yaqindagi o'pka yaxshi, deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Komiljon YORIYEV,
O'zMU talabasi.

"ZIRAPCHA"

Xizmat yuzasidan ikki yildirki vodiy viloyatlari bo'ylab safarda bo'laman. 1-sinf o'quvchilari «Alifbe» darsligini tugatib, «O'qish»

Qo'qondagi ayrim maktab o'qituvchilari «Alifbe» bayramini

O'QITUVCHI SOVG'AGA MUHTOJMI? o'tkazish uchun har bir boladan ikki ming so'mdan yig'ishga tushishdi.

Bayramni o'tkazish yaxshi. Biroq har bir bolaning ota-onasi ikki ming so'mdan bera olarmikin? Bu haqda o'qituvchi-yu o'quvchilar nima deydi? Xatlarimizni kutamiz.

MUXTOR BEK.

ORZULARIM SO'RAYVERIB TONG HAM OTDI,

Men uxlamay, uxlab qolgan tunlarim,
Yetti uxlab, bir tushimda ko'rganim.
Qora tunda osmon ichra charaqlagan,
Qora bulut orasidan yaraqlagan.

Kelar karvon, katta karvon ko'rib turdim,
Ollohimning nigohini sezib turdim.
Onam deydi, osmonga boq, Dilafro'zim,
Ko'zing olma, tilaklaring so'ra qizim.

Kamalakdan gilam tutgan fil karvoni,
Ushaldimi yo Ollohim, dil armoni?!
Nur sochmoqda, zar sochmoqda rangli gilam,
Bu gilamga tushib qoldim bir chog' men ham.

Osmon ketdi ko'p charaqlab xuddi kunduz,
Oy o'rog'i oltitadir, bitta yulduz.
Men-da hayron tilaklarim tilayverdim,
Armonlarim Ollohimdan so'rayverdim.

Ko'p omonlik yer yuziga va osmonga,
Tinch, totuvlik, baxtu-omad har insonga.
Necha yillik armonim bor bu olamda,
Farzand bergin tirnoqqa zor bir xolamga!

Orzularim so'rayverib tong ham otdi,
Bu tush emas uxlamovdim kim uyg'otdi?

Dilafro'z MURODOVA,
Toshkent shahridagi 51-maktab
gimnaziyasining 9- «A» sinf o'quvchisi.

Jahongir ismli qo'shnimiz bor. Uning qo'lida goh bedana, goh to'tiqush, goh toshbaqa ko'raman. A'lochilik yaxshiku-ya, lekin nuqul kitobdan bosh ko'tarmay darsxonaga qamalib o'tiradigan «namunali» o'quvchi haqida o'qish joningizga tekkan bo'lsa, marhamat, Jahongir bilan bo'lgan suhbatimiz bilan tanishing.

Jahongir Karimov. Shahrimizdagi 34-o'rta maktabning 5-«G» sinf o'quvchisi.

- Jahongir, uyingizga goh bedana, goh jo'ja ko'tarib kirsang oying urishmaydilar mi?

- Urishganda qandoq! Yangi «do'st»imni odatda uyga mehmon kelganda olib kelishga harakat qilaman. Bir safar oyim mehmonlar bilan gaplashib o'tirganlarida jo'jamni qutiga solib, sekingina oshxonaga o'tib ketdim. Unga suv berish uchun idish olayotganimda oyim ko'rib, piyolani nima qilmoqchisan, Jahongir? - deb so'radilar.

- Yuviq qo'ymoqchiman,

oyijon, dedim. Lekin baribir ertasiga ertalab jo'jam tipirchilab, sirimni ochib qo'ydi. Oyim aldaganim uchun ozgina koyidlar-u baribir jo'janing biz bilan yashashiga ruxsat berdilar. Lekin bir marta qattiq urishdilar. Yozda Qashqadaryoga, buvannikiga mehmonga bordik. Qarasam, ko'chada qarovsiz kuchuk bolalari bor ekan.

"ZOOPARK DIREKTORI BOLAMAN"

Rahmimiz kelib, ukam Javohir bilan beshtasini ham uyga olib keldik. Ularga yeyishga nima berishni bilmay boshimiz qotdi. Chunki kuchukchalarning tili yo'q, non, go'sht yeya olmasdi-da. Sovutgichni ochsak, pishirilgan «manka» bor ekan. Kuchukchalar talashib-tortishib mazza qilib yeyishdi. Ularning qorni to'ydi-yu jabrini biz tortdik. «Manka» qo'shniniki ekan, sovutgichi buzilib, biznikiga qo'ygan ekan. Oyim yalinishimizga qaramay kuchukchalarni bittasini ham qoldirmay haydab yubordi.

Yaqinda esa tovug'imni so'ymoqchi bo'lishdi. «Baribir

tuxum qilmayapti-ku», deyishdi. Bir kuni ikkita tuxum ko'tarib kirdim-da, mana tovug'im tuxum qildi, dedim. Oyim sovutgichni ochdi-da, birinchidan tuxum ikkita kamayib qolibdi, ikkinchidan bir tovuq kuniga bitta tuxum qilishi mumkin, dedilar. Baribir tovug'imni so'ymadik. Qo'shnimiz Dilorom opaga

dedi. 50 so'mga so'rab ro'parasida turib oldim. Oxiri «bor-e, sendan qutulsam bo'ldi», deb 50 so'mga berib yubordilar.

- Qush va hayvonlarga sinfdoshlaring ham qiziqadimi?

- Sinfimizda jonli burchak tashkil qilmoqchi bo'ldik. O'rtoqlarim bilan sinfimizga kuchukcha olib bordik-da, parta

ko'raman. Ayniqsa, ingliz tili o'qituvchisi Umida opam sira urishmaydilar. Juda muloyim.

- Hozir nima boqyapsan?

- Buvijonimning uyi maktabimga yaqin. Buvimnikida ikkita qo'yoncham, bitta kuchugim bor. Ertalab maktabga o'tishda ham, qaytishda ham do'stlarimdan xabar olmasam, ko'nglim tinchimaydi.

- Jahongir, katta bo'lganingda kim bo'lmoqchisan?

- «Zoopark» direktori bo'laman. Juda ko'p qushlaring, hayvonlaring bo'ladi, zo'r-a?! Istagan paytimda ular bilan gaplashishim, ovqat berishim, silab qo'yishim mumkin. Hech kim ta'qilab qo'ya olmaydi...

Jahongir «Tong yulduzi»ni sevib o'qir ekan. U haqida «Tong yulduzi»ga yozishimni eshitib, quvonib ketdi va iltimos qildi:

- Toshbaqamning suratini gazetada chiqaring, meniki chiqmasayam, mayli...

Nafisa ABDULLAYEVA,
O'zDJTU xalqaro
jurnalistika fakultetining
talabasi.



tanishuv

sotdik. To'g'ri, savdosi kelmadi. Jo'ja bahosidan ketdi.

- Savdoda hamma vaqt ham shunaqa pand yeysanmi?

- Yo'q, savdoni bilaman. Qushlarni «Chorsu» bozoridan olaman. Bir safar cho'ntagimda 50 so'mim bor edi. Jo'ja sotayotgan ota eng past narxi 150

ostiga yashirib qo'ydik. Ozoda opamiz dars o'tayotganda, birdan vovullab qolsa bo'ladimi! Ozoda opaga maqsadimizni aytdik. «Mayli, faqat kuchukcha olib kelmanglar», dedilar. Jonli burchak uchun oldindan 5 javonli kattagina shkafni ko'z ostimga olib qo'ygandim. Toshbaqani eng pastki javonga qo'ydik. Toshbaqa timirsiklanib, kavlanib yuradi-a, baribir qilarini qilibdi - shkafning tagida teshik paydo bo'libdi. G'isht bilan berkitib qo'ydim.

- O'qituvchilaringiz yaxshi ekan-a? Qiziqishlaringizni qo'llab-quvvatlashibdi.

- Hamma o'qituvchimni yaxshi

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Xalq ta'limi vazirliklari, O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi markazi muassisligida mamlakatimiz nashriyotlarida chop etilayotgan yangi kitob va risolalar

mamlakatimiz nashriyotlarida chop etilayotgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa eng muhim yangi kitob va risolalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan o'z vaqtida tanishtiradi, ularga barcha kitoblarning qisqacha mazmuni haqida hikoya qiladi,

YANA BIR YANGI GAZETA!

to'g'risida ma'lumotlarni mutaxassis va kitobxonlarga o'z vaqtida tezkorlik bilan yetkazib berish maqsadida «Ijod dunyosi» nashriyot uyi noshirlikida «Kitob dunyosi» gazetasini tashkil etdi. Bu gazeta Milliy g'oya va Milliy mafkuramizga xizmat



tahlil etadi. Kitob hamda boshqa noshirlik mahsulotlarini keng targ'ib qiladi; Milliy adabiyotimiz shoh asarlari hamda ularning jahon adabiyotida tutgan o'rnini targ'ib qiladi; O'zbekistonning yetakchi nashriyotlarining katalogini berib boradi. Bugungi kunda

qiladigan, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni hamda Kadrlar tayyorlash Davlat dasturini amalga oshirishga dasturulamal bo'ladigan muhim nashrlardan biri sifatida maydonga chiqishiga shak-shubha yo'q.

8 dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunida mazkur yangi nashrning ilk nishona soni rangli tasvirda chop etilib, bayram tuhfasini sifatida o'quvchilar hukmiga havola etildi. Yangi nashr o'quvchilarni

zamonaviy kitoblarni nashr etishda nashriyotlar tomonidan olib borilayotgan ibratli ishlarni targ'ib qiladi, kamchiliklarini tahlil etadi. Chop etilgan kitoblar bo'yicha kitobxonlarning turli xil fikr-mulohazalarini beradi.

Mazkur nashr keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, yosh avlodni kitobga muhabbat ruhida tarbiyalashga salmoqli hissa qo'shadi.

«Kitob dunyosi» gazetasi
indeksi - 238.

Qishloqdagi tengdoshlarimizning, shaharlik bolalarga mazza-da. Kino-teatrlar, saylgohlaru dam olish maskanlari juda ko'p. Hecham zerikishmaydi, kabi fikrlarini ko'plab eshitamiz. Lekin bugungi suhbatdoshimiz - Shahrisabz

yoniga kirib, «Arva» usulida gilam to'qiydi. Kuz, qish manzaralarini aks ettirish uchun soatlab tabiatni kuzatadi. Chizgan surati

ZERIKISHGA VAQTI YO'Q...

shahridagi - 52-o'rta maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi Shohsanam Xusanovning bu boradagi fikrlari butunlay o'zgacha.

o'ziga yoqmasa, yirtib tashlab, yana qayta chizaveradi. Ko'nglidagidek chiqmaguncha, tinchimaydi.

Shohsanam doimo o'qish va yumushlar bilan band bo'lar ekan-da, deb

Qishloqdagi tengdoshim

«Bo'sh vaqtimni maroqli o'tkazaman desa, qishloqda ham yo'lini topsa bo'ladi», - deydi Shohsanam doimo.

Maktabda barcha fanlardan a'lo baholarga o'qiydigan Shohsanamning sevimli mashg'ulotlari talaygina: badiiy kitob o'qish, rasm chizish, she'rlar mashq qilish, yumshoq o'yinchoqlar tikish...

«Tantiq qiz», «Kitobim - oftobim», «Sharq xalqlari ertaklari»ni qayta-qayta o'qib zerikmaydi. Onasining

o'ylayotgandirsiz. Yo'q, hamma bolalar kabi u ham o'rtoqlari bilan o'ynashni juda yoqtiradi va buning uchun har doim vaqt topadi. Eng yaqin dugonasi Ma'mura bilan




yumshoq o'yinchoqlar tikib, uka va singillariga sovg'a qiladi.

Xullas,

Shohsanamning zerikishga hecham vaqti yo'q...

Nargiza AKBAR qizi,
Toshkentdagi 249 - maktabning
8-sinf o'quvchisi.

Aziz bolalar! Sizlar ayrim maktublaringizda «Maktabdosh bola



dugonamga xat yozdi. Dugonam ham unga javob yozdi. Aytinch, bizning yoshimizda sevgi haqida o'ylash erta emasmi?» degan savol bilan murojaat qilasiz. To'g'ri, sizning ayni vaqtidagi vazifangiz o'qish, o'rganish, izlanish.

Biroq, Yozuvchi Akbar Yunusovning o'smir yoshdagi bolalar uchun yozgan «Muhabbat darsi» pyesasi bilan tanishib chiqsangiz, sizni qiziqtirgan barcha savollarga javob topishingiz aniq.

Respublika yosh tomoshabinlar teatri artisti Lutfulla aka Sa'dullayev ham ana shu pyesa bilan tanishib chiqdi. Nasib bo'lsa asarni sahnaga olib chiqmoqchi.

«Muhabbat darsi» ga baho berish, undan to'g'ri xulosa chiqarish siz azizlarga xavola.

-Teatrimizga yuqori sinf o'quvchilarini ham jalb qilishimiz kerak,- deydi O'zbekiston

bu qonun tarafidan ham himoya qilinish tasviri menga xush keldi.

- San'at hamisha fidoyilik maydoni bo'lgan,- deydi yozuvchi Akbar aka Yunusov.- Xotiralarni to'liqlantirsam, yoshligimda ko'rgan asarlarim yodimga tushadi. «Oppog'im», «Uyimga qaytaman» kabi asarlar Respublika yosh tomoshabinlar teatrida qayta-qayta berilardi. Biz undagi salbiy

savolga asardagi kichik bir hikoya javob bo'la oladi.

«Nurjonni endigina tili chiqib, atrofga tiyrak boqayotganda undan so'radilar:

- Kimni sevasan?

- Oyimni,- debdi «shuni ham bilmaysizmi?» degandek hayron qarab.

Nurjon atak-chechakdan o'tib, otasining yelkasida yurganda:

-Kimni sevasan?- deb so'rashibdi.

so'rashdi.

Nurjon indamadi, ammo qalbidan sevgilisining nomi olamga tarqalgandek bo'lardi. Nurjon uylandi, farzandli bo'ldi. O'g'lini suyib o'ltirganda so'rashdi:

- Kimni sevasan?

- O'g'limni,- dedi qat'iy.

Urush boshlanib, Nurjon yig'layotgan onasi va xotinini, unga talpinayotgan o'g'lini, hassaga tayanib turgan otasini tashlab, urushga ketdi.

- Kimni sevasan?

- Vatanni, mustaqillikni, erkni,- degan viqorli so'zni aytdi. Urushdan qaytdi. Urush yaralari bitgandek bo'ldi. Shunda yana so'rashdi:

- Kimni sevasan?

- Tinchlikni, bolachaqani, sog'-salomatlikni,- deb javob qildi.

Nur ota Nur bobo bo'ldi. Xastalanib to'shakda behol yotardi. Atrofida o'g'il-qizlari sukut saqlab o'tirardi. Faqat kichkina nabirasi atrofida aylanib chuldirardi.

Shunda so'rashdi:

- Kimni sevasan?

- Yashashni, hayotni,- dedi nabirasiga qarab.

I. ODILOV.

"MUHABBAT DARS"

Respublikasi xalq artisti Lutfulla aka Sa'dullayev.- Buning uchun esa ularbop asarlar juda muhim.

Bolalar meni artist deb tanishadi. Ammo rejissyorlikka endi qadam qo'yyapman. Bugungi kunga qadar bir nechta asarni sahnalashtirdim. Rejissyorlik san'ati meni ham o'ziga tortdi.

Ushbu asarni tanlashimga sabab, unda birinchi muhabbat ardoqlanadi, uni asrashga, hurmat qilishga chaqiradi. Ilk muhabbat - bu ilohiy muhabbat. Ilohiy mahabbatni toptash, ustidan kulish, keng jamoatchilik orasida muhokama qilish bu jinoyat. Hatto

va ijobiy qahramonlarni tahlil qilardik. Yolg'onu yomonlardan nafratlanganimiz, yaxshi insonlardek bo'lishga harakat qilganimiz hamon yodimizda.

Nazarimda teatrdagi o'smir yoshdagi bolalar uchun ham asarlar ko'proq bo'lishi kerak. Axir o'smir yoshdagi millionga yaqin yigit-qizlar bor. Bu degani million tomoshabin-ku.

«Muhabbat darsi»ga esa o'quvchi o'z bahosini beradi.

«Muhabbat nima o'zi?» bu



- Otamni, ularchi kuchlilar,- dedi Nurjon.

U maktabga bordi, olamni tanidi, ovozi do'rillab, mo'ylovi sabza urdi.

- Kimni sevasan?- deb

TEZ AYTISHGAR



Og'aynim chaqirdi. O'ynab, gugurt chaqildi. Bu ishim onamga chaqildi. Onam otamni chaqirdi. Boshimda yong'oq chaqildi. Ko'zimdan chaqmoq chaqnadi.

Hamida Xolidaning xolasimi, Xolidaning xolasi Hamidami?

Shirin shirin kulchani shirin choy bilan ichdi.

Rustam raketaning rasmini rangli ruchkalarda

chizdi.

Robiya bilan Rohila «Rohat» raqsini ijro etib berdi.

Salqin shamol shivirladi, Sariq somon shitirladi.

Salimning sochi sariqmi? Sariq sochli Salimmi?

G. MUHAMMADYOROVA.

QISH

Qish keldi-yu qish keldi, Go'yo sovuq nish keldi. Katta bayram - yangi yil, Bolalarga «ish» keldi.

Maktabda archa bayram, Uyda ham katta bayram. Chiroqlar yilt-yilt yonar, Tun ham kun go'yo bu dam.

Ayozda tun qo'ynida, Turar ajib qorbobo.

Qopida sovg'a emas, Muz, qorlari bor bobo.

Oldiga chopib borib, Uni chin deb o'yabmiz. Bolalar yasashibdi, So'ng uyaldik hammamiz.

Asilbek RAHIMQULOV,

Farg'ona viloyati,

Buvayda tumanidagi Al-

Farg'oniy nomli litseyning

7-sinf o'quvchisi.

Tunov kuni televizorni qo'ysam, konstitutsiya kuniga bag'ishlangan ko'rsatuv bo'layotgan ekan.

Yurtboshimiz (Qutlov)

qo'ng'iroq qilib, suyunchiladim. Dilnoza opa Po'latova, Samixa opa Mirzamuhamedova, Dilyora

Erkinovalar bilan

kelishib, opamizni

yuksak unvon

bilan

UMIDA OPAMIZNI QUTLAYMIZ

Islom Karimov

bir qator yurtdoshlarimizni unvonlar bilan taqdirladilar. Mukofotlanganlar orasida sevimli nashrimiz «Tong yulduzi» gazetasining bosh muharriri Umida opa Abduazimovaning ham borliklarini ko'rib, sevinib ketdim. Gazeta qoshidagi «Istiqlol umidlari» to'garagiga qatnaydigan do'stlarimga ham

muborakbod etishga qaror qildik.

- Umida opa, unvoningiz muborak! Yosh avlodni tarbiyalashdek sharafli ishingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

«Istiqlol umidlari» to'garagi a'zolari nomidan

Mahmudjon AZIMOV,

Shayxontohur tumanidagi

169 - maktabning

5 - sinf o'quvchisi.

Assalomu alaykum hurmatli Umida opa!

Mana bir necha yildan buyon siz boshqarib kelayotgan «Tong yulduzi» gazetasiga sinfimiz o'quvchilari bilan obuna bo'lib kelyapmiz va ushbu gazeta bizning sevimli nashrimizga aylanib qolgan.

«Tong yulduzi» nafaqat sinfimiz, balki maktabimiz o'quvchilarining qalbidan munosib o'rin olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz gazeta sahifalarida muntazam ravishda e'lon qilinayotgan tengdoshlarimizning she'r va hikoyalarini maroq bilan o'qiydiz. Sinf rahbarimiz bilan birgalikda undagi maqola va xabarlarini o'qib, mushohada,

Bosh muharrirga maktub

muhokama qilamiz, fikr-mulohazalar bildiramiz.

Umida opa, sizga va barcha tahririyat xodimlariga

UNVON MUBORAK, OPAJON!

bizdek adabiyot nihollarining ilk polapon mashqlarini parvoz qilishiga imkon yaratayotganingiz, dunyoqarashimizni shakllantirishga yordam beradigan sahifalaringiz uchun o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Sizni yana bir bor yurtimizning yuksak unvoni bilan qutlab,

mashaqqatli faoliyatingizda yuksak cho'qqilarni zabt etishingizni, «Tong yulduzi» esa yanada o'qimishli sahifalar bilan boyib boraverishini tilaymiz.

Shuni quvonch bilan aytishim mumkinki, sinfimiz o'quvchilari bu yil ham birinchilardan bo'lib o'z sevimli nashrlari - «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishdi.

Toshkent shahar,

Yunusobod tumanidagi

274-maktabning

8-«A» sinf o'quvchilari va


sinf rahbari

R.SHOKIROVA.

Aziz bolajonlar, mana hash-pash deguncha 2001 - «Onalar va bolalar» yilimizni ham yakunlash arafasida turibmiz. Yil oxirlab borgani sari ortga ko'proq nazar tashlaymiz, yil davomida qilingan ishlarimizni sarhisob qilamiz. Ya'ni, «G'alvirni suvdan ko'taradigan» palla keldi, nazarimizda...

«Istiqlol umidlari» to'garagimizning bu galgi mashg'uloti ham aynan ana shu mavzuga bag'ishlandi. To'garagimiz a'zolari gazetamizning bir yil davomida chop etilgan sonlarini varaqlab, fikr-mulohazalar bildirishdi. Yangi yilda uni yanada qiziqarli, o'qimishli va mazmunli qilish borasida takliflar kiritishdi. Feruza, gazetada e'lon qilinayotgan test savollari, krossvord boshqotirmalarni yechish jonu- dilim, desa, Mahmudjon «Xatlar sahifasi»dagi maqola va xabarlarini zo'r qiziqish bilan o'qishini aytdi. Zamira mitti ertaklar, Dilrabo she'rlar o'qishni yoqtirgani bois, ko'proq she'r va ertaklar e'lon qilishimizni so'rashdi. Samixa, Dilnoza va Nazokat ismli qizlarimiz litseylar, kollej va

maktablarning yuqori sinf o'quvchilari hayotiga oid maqolalar ko'proq yoritilsa, yaxshi bo'lardi, deya taklif kiritishdi. Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyining tarix bo'limi o'quvchisi Shahnoza Oydinova respublikadagi ijodkor tengdoshlari orasida «Eng qiziqarli xabar» mavzusida tanlov o'tkazishni taklif qildi. Uning shartiga ko'ra har bir o'quvchi hamma uchun qiziqarli bo'lgan, hali hech kim eshitmagan ma'lumotlarni qidirib topishi va tahririyatimizga yuborishi lozim ekan. Tanlovda g'olib chiqqan o'quvchilarga «Faxriy yorliq» hamda sirli sovg'a ham hozirlab qo'yibdi. Shahnozaning sirli sovg'asiga ega bo'lishni xohlasangiz, qiziqarli ma'lumotlar topishga shoshiling. Dovrug'i dunyoga mashhur Toj Mahalning qayerda joylashganini hammangiz yaxshi bilsangiz kerak. Lekin uning qanday uslubda, qanday an'analar asosida qurilganini, bezaklari mavzusini hammangiz ham bilavermasangiz kerak-a? Tengdoshingiz Shahnoza Toj Mahal haqidagi ayrim ma'lumotlarni (tanlovdan tashqari) e'tiboringizga havola qilmoqchi:



TOJ MAHAL NIMA?

Toj Mahal (1632-1654)ning Agradagi maqbarasi va to'rt minorasi Hindiston me'morlarining injusiga aylangan. Maqbara va minoralar Islom me'morchiligi an'alariga asosan bunyod etilgan. Toj Mahal Shoh Jahon tomonidan zavjai muhtaramasi Mumtoz Mahalga yodgorlik sifatida inshoot etilgan edi. Imorat tamomila Mashriqzamin mavzulari, ya'ni, naqshlar va Qur'oni karim oyatlari tushirilgan marmar bilan qoplangan. Imoratning mahobatli o'lchamlari naqshlarning nafisligi bilan uyg'unlikda favqulodda boqiy va ulug'vor timsolni yaratadi.



Shahnoza Oydinova

"OQSHOM ERTAKLARI" MEHMONIMIZ BO'LDI

Konstitutsiya kuni, hamda yaqinlashib kelayotgan yangi yil bayrami munosabati bilan maktabimizda ajoyib kecha bo'lib o'tdi. Sevimli ko'rsatuvimiz bo'lmish «Oqshom ertaklari» ko'rsatuvi ijodkorlari bizni qutlagani kelishdi. Quvnoq kuy va qo'shiqlar aytib, «Zumrasha» nomli teatr namoyish etib berishdi. Kecha so'ngida, ayyor tulkinging yolg'on va dalariga uchib, qopqonga tushib qolayozgan bo'g'irsoqqa o'xshab qolmanglar, deya nasihat qilishdi. Tomoshalar nafaqat bizga, ustozlarimizga ham juda ma'qul bo'ldi.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Yakkasaroy tumanidagi
118 - maktabning 4 - sinf o'quvchisi.

O'N SAKKIZ BAHORIM

Hilol kelib qoshimga qo'ndi,
Nur taratdi yuzlarim gulgun.
Izlarimdan boychechak undi,
O'n sakkizga kirdim men bugun.

Sezdim: bunda olam munavvar,
Zarra yo'qdir yurakda tugun.
Nigohimdan go'zallik unar,
O'n sakkizga kirdim men bugun.

Boqdim ortga, mas'um bolalik,
Qo'l silkitib turar ushbu kun.
- Yaxshi qol, - deb shodon hayqirdim,
O'n sakkizga to'laman bu kun.

O'n sakkiz yosh - o'n sakkiz olam,
O'n sakkiz ming olam xayol og'ushi.
O'n sakkiz yosh yilt etgan shabnam
Baxt dengizin ulkan ulushi...

Dilshoda ABDURAHMONOVA,
Sirdaryo viloyati, Yangiyer tibbiyot
bilim yurti talabasi.



ONA BO'LGIN, TABIAT

Tabiat, men seni onam deb atay,
Tabiat, men seni otam deb atay,
O'zgacha qiyoslash lozim bo'lsa gar,
Tabiat, men seni Vatan deb atay.

Sokin tun o'tadi borliq qo'yinda,
Erta tong saharda porlaydi quyosh,
Yomg'irlar yog'adi ko'zim o'ngida,
Yomg'irimas, u mening ko'zimdagi yosh...

Kimlardir bulg'aydi ummonlaringni,
Kimdir ifloslaydi qir-tog'laringni.
Kimlardir qarovsiz qoldirib shu dam,
Xazon qilib qo'yar bog'-rog'laringni.

Seni payhon qilar nokas kimsalar,
Senga tosh otadi, bag'ringni yoqar.
O'ylamas, avlodlarga neni qoldirar,
Ularning ko'ziga qay ko'z-la boqar?

Nasibaxon MO'MINOVA,
Namangan viloyati, Uchko'prik
tumanidagi Sherobod qishlog'i.

Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 20-o'rta maktab tomonidan 2001 yil 16 iyunda Sharopov Bobir Muxitdinovichga berilgan O'R-Z 0907678 raqamli guvohnoma yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

Ra'no nonushtadan so'ng uy ishlarini bajarib bo'lib, bir oz dam olgach darsini qilishga o'tirdi. Uyga vazifa adabiyot fanidan «Mening orzuim» mavzusi bo'yicha insho yozish edi. U yoshligidanoq jurnalist bo'lishni orzu qilardi, maktabda qanday tadbir bo'lmasin usiz o'tmasdi. Maktabni bitirgach, jurnalistika yo'nalishi bo'yicha oliygohga hujjatlarini topshirmoqchi. U inshoni yozar ekan, shunday so'zlar bilan boshladi. «Men kelajakda avvalo chin inson, qolaversa o'z kasbini sevuvchi jurnalist bo'lmoqchiman».

Ertasiga maktabdan negadir xafa bo'lib uyiga qaytdi. Uni qarshi olgan onasi:
-Ra'no qizim, nima bo'ldi?- deb qarshi oldi.
- Assalomu alaykum! - oyjon.
Onasining ko'ngliga taskin berish uchun bir kulib qo'ydi-da, asta-sekin uyiga kirib

ketdi. Sumkasini qo'yar qo'ymas divaniga o'zini otdi va ko'ziga ohista yosh kelayotganini seza boshladi. Shu payt ketidan yetib kelgan katta opasi Nasiba uni ko'rib seskanib ketdi.

-Ra'no, nega yig'laysan, nima bo'ldi?- deb so'radi.

Birozdan so'ng: -Bilasizmi, Nasiba opa, bugun negadir o'zim sevgan fandan «2» baho oldim. Bunaqada oliygohga kira olmayman.

Buni eshitgan opasi kulib:
- Singlim, sen bahoga emas, bilimingga ishon. Orzuingga yetish uchun avvalo o'qi, izlan, harakat qil, tushkunlikka bo'y berma. Hech qachon qilgan orzuingga o'zingni noloyiq deb hisoblama. Axir aytadilarku: «Intilganga tole'yor», deb - dedi.

A'loxon DEHQONIY qizi,
O'zMU tayyorlov kursi tinglovchisi.

ORZU

(Hikoya)

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyat-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxonada manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-3192
Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08